
PAXTA HOSILINING TERIM JARAYONI BORIB KO'RILDI

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Oltiariq tumanidagi "Mayram Matyoqubova" fermer xo'jaligida paxta hosilining terim jarayonini borib ko'rdi. 30 gektar maydondagi hosil "John Deere" rusumli paxta terish mashinasida terib olinyapti.

Viloyat rahbari mazkur zamonaviy texnikalar ish unumdorligini oshirish, paxta xom ashyosini sifatli terib olishda muhim o'rin tutishini alohida qayd etdi.

Tumanda joriy yilda 190 ta fermer xo'jaliklari tomonidan 5600 gektar maydonda paxta yetishtirildi. Bu yil 6 ta paxta terish mashinasida hosil yig'ishtirib olinmoqda.

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-09-12 23:58:03